

II SHO'BA

MOLIYA BOZORI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA INSTITUTIONAL INVESTORLAR ROLINI OSHIRISH

KORXONALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH MASALALARI

Ahmedov Alijon Anvarjon o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya: *Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Innovatsion loyihalarning yuqori risk va kapital talabchanligi sharoitida kapital tuzilmasini optimallashtirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash hamda risklarni boshqarish zarurligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *innovatsion faoliyat, moliyaviy barqarorlik, kapital tuzilmasi, moliyalashtirish manbalari, risklarni boshqarish.*

Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion faoliyat korxonalar rivojlanishining strategik omiliga aylanmoqda. Texnologik yangilanish sur'atlarining tezlashuvi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, sun'iy intellekt va raqamli platformalarning keng joriy etilishi korxonalardan uzluksiz innovatsion transformatsiyani talab etmoqda. Bunday sharoitda innovatsiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, balki xarajatlarni optimallashtirish, yangi bozor segmentlariga chiqish va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv imkonini beradi. Shu bilan birga, innovatsion faoliyat yuqori darajadagi noaniqlik, uzoq investitsion davr va sezilarli moliyaviy resurs talab qilishi bilan tavsiflanadi.

Innovatsion loyihalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular ko'pincha an'anaviy investitsiya loyihalariga nisbatan yuqori risk va o'zgaruvchan pul oqimlari bilan farqlanadi. Tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, yangi texnologiyalarni joriy etish yoki mahsulotlarni tijoratlashtirish jarayonida daromadlarning shakllanishi uzoq muddat talab qilishi mumkin. Natijada, noto'g'ri moliyalashtirish strategiyasi yoki kapital tuzilmasidagi nomutanosiblik korxonaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, likvidlilik inqirozi yoki to'lovga qobiliyatsizlik xavfini kuchaytirishi mumkin. Shu bois innovatsion faoliyatni moliyalashtirish jarayonida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash

masalasi nazariy va amaliy jihatdan muhim ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Korxonalarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalari iqtisodiy nazariyada kapital tuzilmasi, investitsion qarorlar va moliyaviy risklarni boshqarish konsepsiyalari bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan. Innovatsiyalarni moliyalashtirishning nazariy asoslari dastlab kapital tuzilmasi nazariyasi doirasida shakllangan. Modilyani va Miller tomonidan ilgari surilgan kapital tuzilmasi konsepsiyasiga ko'ra, mukammal bozor sharoitida kapital strukturasi korxonaga qiymatiga ta'siri mavjud emas [1]. Biroq keyingi tadqiqotlar bozor nomukammalliklari, soliqlar va moliyaviy inqiroz xarajatlari mavjud bo'lgan sharoitda optimal kapital tuzilmasini tanlash muhimligini ko'rsatdi.

Myers va Majluf tomonidan ishlab chiqilgan ierarxik moliyalashtirish nazariyasida korxonalar avvalo ichki mablag'lardan, so'ng qarz mablag'laridan, oxirgi bosqichda esa aksiyalar emissiyasidan foydalanishi ta'kidlanadi [2]. Ushbu yondashuv innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda ayniqsa dolzarb bo'lib, yuqori noaniqlik sharoitida tashqi kapital jalb qilish qimmat va murakkab jarayon ekanligini asoslaydi. Innovatsion korxonalar ko'pincha yuqori risk tufayli kredit resurslariga cheklangan kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Aghion va Howitt innovatsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi omili sifatida baholab, moliyaviy tizim rivojlanish darajasi innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi [3]. Moliyaviy infratuzilmaning rivojlanmaganligi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda kapital yetishmovchiligini keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, venchur kapital institutlari innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning samarali mexanizmi sifatida e'tirof etiladi. Gompers va Lerner venchur kapitalning yuqori texnologiyali korxonalar rivojlanishiga ijobiy ta'sirini empirik asosda isbotlagan [4].

Moliyaviy barqarorlik konsepsiyasi doirasida Altman tomonidan ishlab chiqilgan bankrotlikni prognozlash modeli korxonaga barqarorligini baholashda muhim vosita sifatida qo'llaniladi [5]. Ushbu yondashuv moliyaviy ko'rsatkichlar tizimi orqali korxonaning innovatsion loyihalarni moliyalashtirish qobiliyatini baholash imkonini beradi. Brigham va Ehrhardt korxonaga qiymatini oshirishda risk va daromadlilik o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlash zarurligini ta'kidlab, innovatsion investitsiyalar moliyalashtirilishida kapital qiymati va moliyaviy leverage darajasining ahamiyatini asoslaydi [6].

Korxonalarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish jarayonida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash tizimli va integratsiyalashgan yondashuvni talab etadi. Avvalo, kapital tuzilmasini optimallashtirish nazariy jihatdan kapitalki qiymatini

minimallashtirish va moliyaviy leverij samaradorligini oshirish tamoyillariga asoslanishi lozim.

1-jadval

Korxonalarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari va ularning moliyaviy barqarorlikka ta'siri

Moliyalashtirish manbasi	Moliyaviy barqarorlikka ta'sir mexanizmi	Afzallik va risk xususiyatlari
Ichki manbalar (sof foyda, amortizatsiya)	Kapital tuzilmasini mustahkamlaydi, tashqi qarzga bog'liqlikni kamaytiradi	Barqarorlik yuqori, lekin resurs hajmi cheklangan
Bank kreditlari va obligatsiyalar	Innovatsion loyihalarni tezkor moliyalashtirish imkonini beradi	Foiz yuklamasi oshadi, leverage kuchayadi
Venchur kapital va xususiy investorlar	Riskni investor bilan taqsimlaydi, kapital bosimini kamaytiradi	Boshqaruv nazorati suyulishi mumkin
Davlat grantlari va subsidiyalar	Qarz yuklamasiz qo'llab-quvvatlash orqali barqarorlikni oshiradi	Byudjet cheklovlari va tanlov shartlari mavjud

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Bunda o'z mablag'lari va qarz mablag'lari o'rtasidagi nisbat korxonaning riskga moyilligi, pul oqimlarining barqarorligi hamda innovatsion loyihaning hayotiy sikli bosqichlari bilan uyg'unlashtirilishi zarur. Innovatsion loyihalarni bosqichma-bosqich moliyalashtirish mexanizmini joriy etish investitsiya qarorlarini real opsionlar yondashuvi asosida qabul qilish imkonini beradi hamda noaniqlik sharoitida kapital yo'qotish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Shu bilan birga, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash strategik ahamiyat kasb etadi. An'anaviy bank kreditlari bilan bir qatorda venchur kapital, grant mablag'lari, korporativ obligatsiyalar, aksiyalar emissiyasi hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish korxonaning kapitalining moslashuvchanligini oshiradi va qarz yuklamasining konsentratsiyalashuvini oldini oladi. Ayniqsa, yuqori texnologik loyihalarda riskni taqsimlash va sheriklik asosida moliyalashtirish modeli korxonaning moliyaviy mustahkamligini saqlab qolishga xizmat qiladi. Pul oqimlarini prognozlashning diskontlangan modellari, ssenariy tahlili va stress-test mexanizmlarini qo'llash orqali likvidlik va to'lovga qobiliyatlilik ko'rsatkichlari ustidan doimiy nazorat o'rnatilishi zarur. Raqamli moliyaviy monitoring tizimlarini joriy etish esa real vaqt rejimida risk indikatorlarini baholash va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda moliyaviy barqarorlik kapital tuzilmasining optimal shakllanishi, resurs bazasining uzoq muddatli barqarorligi va kompleks risk-menejment tizimining mavjudligi bilan bevosita bog'liqdir. Innovatsion

rivojlanish yuqori noaniqlik va kapital talabchanlik bilan tavsiflanishiga qaramay, moliyaviy barqarorlikni ta'minlagan holda amalga oshirilgan investitsiyalar korxonaning strategik ustunligini mustahkamlaydi, uning bozor qiymatini oshiradi va uzoq muddatli o'sish trayektoriyasini barqarorlashtiradi. Natijada, korxonalar darajasida innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish milliy iqtisodiyotning texnologik modernizatsiyasi va raqobatbardoshligini oshirishning muhim institutsional omiliga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] Modigliani F., Miller M. *The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment // American Economic Review.* – 1958. – Vol. 48. – No. 3. – P. 261–297.
- [2] Myers S., Majluf N. *Corporate Financing and Investment Decisions When Firms Have Information that Investors Do Not Have // Journal of Financial Economics.* – 1984. – Vol. 13. – P. 187–221.
- [3] Aghion P., Howitt P. *Endogenous Growth Theory.* – Cambridge: MIT Press, 1998.
- [4] Gompers P., Lerner J. *The Venture Capital Cycle.* – Cambridge: MIT Press, 1999.
- [5] Altman E. *Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // Journal of Finance.* – 1968. – Vol. 23. – P. 589–609.

BANKLARDA RISK-MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOLIYA BOZORI BARQARORLIGI VA INVESTORLAR FAOLLIGIGA TA'SIRI

Hakimova Nargiza

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktorant

Moliya bozori barqarorligi har qanday mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Bank tizimi esa bu barqarorlikning asosiy tayanchi bo'lib, uning samarali ishlashi iqtisodiy o'sish va investorlarning ishonchini ta'minlaydi. So'nggi yillarda global va mahalliy moliya bozorlari sharoitida banklarda yuzaga kelayotgan kredit, likvidlik va bozor risklari tizimning barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, banklarda risklarni baholash va boshqarish tizimlarini takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy bank amaliyotida risk-menejment tizimini takomillashtirish jarayonida an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda bozor sharoitidagi o'zgarishlar hamda investorlar talablari ham muhim omil sifatida baholanishi kerak. Shunday tizim moliya bozori barqarorligini oshiradi va